

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston fond bozorini rivojlantirishdagi asosiy vazifa nafaqat nominal o'sishni ta'minlash, balki likvid, diversifikatsiyalashgan va jozibador bozorga aylantirishdan iborat. Shundagina aksiyalar bozori iqtisodiyotda resurslarni samarali taqsimlaydigan, xususiyl investitsiyalarni rag'batlantiruvchi va uzoq muddatli o'sishni ta'minlaydigan institutsional mexanizmga aylanishi mumkin.

## **O'ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ESGNI JORIY ETISH MASALALARI**

***Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi***

*Yangi O'zbekiston universiteti stajyor-tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakatimizda moliya bozorining bugungi holati hamda moliya bozorini barqaror rivojlantirishda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining nazariyl ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, mamlakatimizda moliya bozorida barqaror investitsiyalarni rivojlantirish, korporativ boshqaruv, ekologik hamda ijtimoiyl mas'uliyatlarni oshirishda ESG o'rni nazariyl o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** ESG, moliya bozori, barqaror investitsiyalar, yashil moliya, korporativ boshqaruv, ekologik muhit, ijtimoiyl muhit, kapital bozori.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish, ESG masalari tobora muhim o'rinni egallamoqda. Bu o'z navbatida iqtisodiyotning barcha sohalari faoliyatida resurslardan samarali foydalanish hamda ularni nazorat qilishni keltirib chiqaradi. Moliya bozorlari faoliyatida ham ekologik, ijtimoiyl, korporativ boshqaruv omillarini hisobga olish zarurati kuchayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-sentabrda tasdiqlangan "O'zbekiston —2030" strategiyasi mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni o'z ichiga olmoqda.[1] "O'zbekiston – 2030" strategiyasida moliya bozorini rivojlantirish bo'yicha davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish; qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish; "Yashil" iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash kabi ustuvor yo'nalishlar keltirilgan. "Yashil" iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat moliyasini boshqarishda ekologik barqarorlikni ta'minlash va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, ekologik loyihalarni moliyalashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan dasturlarni qo'llab-quvvatlash vazifalari belgilangan. Shu munosabat bilan moliya bozorini modernizatsiyalash va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish jarayonida ESG tamoyillarini joriyl qilish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda moliya bozori - qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho metallar, valyutalar va boshqa investisiya vositalarini qarz olish, berish, sotib olish va sotish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi majmuini o'z ichiga oladi. Moliya bozoriga kapital bozori (qimmatli qog'ozlar bozori), derivativlar bozori, pul va valyuta bozorlari va sug'urta bozori kiradi. Moliya bozori ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari banklararo bozorda bo'lgani kabi ayirboshlash orqali yoki tashkilotlar o'rtasida shartnomalar tuzish orqali amalga oshishi mumkin.

ESG — "Environmental" (atrof-muhit), "Social" (Ijtimoiyl mas'uliyat) va "Governance" (Korporativ boshqaruv) so'zlaridan olingan bo'lib, kompaniyalar

faoliyatining ekologik himoya, ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash, xodimlar va mijozlarga halol munosabatda bo'lish hamda to'g'ri korporativ boshqaruv asosida qurilgan tamoyillari hisoblanadi. ESG — “Environmental” (atrof-muhit), “Social” (Ijtimoiy mas'uliyat) va “Governance” (Korporativ boshqaruv) so'zlaridan olingan bo'lib, kompaniyalar faoliyatining ekologik himoya, ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash, xodimlar va mijozlarga halol munosabatda bo'lish hamda to'g'ri korporativ boshqaruv asosida qurilgan tamoyillari hisoblanadi. ESG tamoyillariga amal qiladigan kompaniyalar tabiatga yetkaziladigan zararlarni kamaytirish, xodimlar va mijozlarga g'amxo'rlik qilish majburiyatini oladi hamda shaffof va halol ishlaydi.[2]

ESG - bu ijtimoiy ongli investorlar investitsiyalarni tanlashda foydalanadigan ekologik, ijtimoiy va boshqaruv standartlarini anglatuvchi qisqartma so'z hisoblanadi. Ushbu standartlar asosida davlat kompaniyalari va xususiy korxonalar atrof-muhitga, korxonalarda ishlayotgan ishchilarga bo'lgan munosabatlari qanday darajadiligini hamda boshqaruv va korporativ boshqaruvning yuqori standartlarga javob berishini aniqlashdan iborat. Xalqaro darajada hozirgi kunda ESGning 70 dan ortiq standartlari mavjud bo'lib, biroq ular asosida yagona universal ESG standarti hali ishlab chiqilmadi.[3]

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari moliyaviy faoliyatni ekologik va ijtimoiy tamoyillar bilan uyg'unlashtirish muhimligini ko'rsatdi. Xalqaro investitsiya fondlari ko'proq ESG standartlariga muvofiq faoliyat yuratadigan korxonalarga investitsiya kiritishga e'tibor qaratmoqda. Shu bois, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida yurtimizda yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish tamoyillariga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu esa o'z navbatida moliya tizimiga ESG standartlarini joriy qilishga zamin yaratmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonning yashil obligatsiyalar bozorining hajmi 2.5 milliard dollar bo'lib, bu boshqa davlatlarga nisbatan ancha past. ESG reytingi 6.2/10 darajasida, bu esa ESG tamoyillarining milliy moliya tizimiga yetarlicha integratsiya qilinmaganligini ko'rsatadi.[4]

O'zbekistonda moliya bozoriga ESG tamoyillarini joriy qilish quyidagi jihatlarni rivojlantiradi[5]:

1. Korporativ boshqaruv takomillashtirish;
2. Yashil moliya instrumentlarini rivojlantirish;
3. Kapital bozori rivojlantirish;
4. Investitsiya jozibadorligi oshirish;
5. Yashil obligatsiyalari kengaytirish.

O'zbekiston moliya tizimida ESG tamoyillarini joriy qilish xalqaro investitsiyalar hajmini oshirish va yashil iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xorijiy investorlarni jalb qilishda ESG mezonlari muhim rol o'ynaydi. Quyida taklif etilayotgan omillar ESG tamoyillariga asoslangan moliyaviy muhitni shakllantirishga yordam beradi:

1. O'zbekistonda milliy ESG standartlarini ishlab chiqish;
2. Korxonalarda ESG hisobotlarini joriy etish;
3. Yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish;
4. ESG hisobotlarini ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
5. Moliya institutlarida barqaror investitsiya strategiyalarini keng qo'llash.

Xulosa qilib aytganda, ESG ko'rsatkichlari yashil iqtisodiyot sharoitida samarali faoliyat yuritishda muhim strategik vosita hisoblanadi. ESG yondashuvi ekologik

muhofaza, ijtimoiy barqarorlik va korporativ boshqaruvni yagona tizimda birlashtirib, korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu bois, zamonaviy sharoitda ESG ko'rsatkichlarini joriy etish nafaqat ixtiyoriy tashabbus, balki barqaror rivojlanishning zarur sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. ESG tamoyillari investorlar ishonchini oshirish, capital bozorini rivojlantirish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "O'zbekiston - 2030 strategiyasi" – Toshkent, 2023.
2. Porter M.E., Kramer M.R. *Creating Shared Value*. – Harvard Business Review, 2011.
3. ECD. *Corporate Governance and Sustainability*. – Paris, 2020
4. World Bank. *ESG and Sustainable Finance*. – Washington, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.
6. [www.wikipedia.com](http://www.wikipedia.com)

### **YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT MODERNIZATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI ESG KO'RSATKICHLARI ORQALI BAHOLASH METODOLOGIYASI**

**Otaboyev Umrbek Umidbek o'g'li**

*Xalqaro Nordik universiteti asistent o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sanoat modernizatsiyasining iqtisodiy samaradorligini baholash masalasi ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlari asosida, ayniqsa yashil texnologiyalarni joriy etish jarayoni bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ESG yondashuvi orqali sanoat modernizatsiyasini kompleks baholashga qaratilgan metodologik model O'zbekiston sharoitida hali to'liq shakllanmagan.

Tadqiqot jarayonida mamlakat sanoatida muhim o'rin tutuvchi bir qator yirik korxonalar - "Navoiyazot" AJ, "Navoiyuran" DK, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ hamda UzAuto Motors AJ - ning rasmiy ESG hisobotlari tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan "Yashil ESG-modernizatsiya indeksi" (YEMI) amaliy sinovdan o'tkazildi. Olingan natijalar O'zbekistonda sanoat korxonalarida ESG hisobotchiligi hali shakllanish bosqichida ekanini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, YEMI indeksi "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlar bilan uyg'un holda sanoat modernizatsiyasini har tomonlama va miqdoriy jihatdan baholash imkonini beruvchi amaliy instrument sifatida taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** yashil texnologiyalar, sanoat modernizatsiyasi, ESG ko'rsatkichlari, YEMI indeksi, iqtisodiy samaradorlik, O'zbekiston.

So'nggi o'n yilliklarda jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish tamoyillari asosida sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish jarayonlari tobora muhim strategik yo'nalishga aylanib bormoqda. Ayniqsa, ekologik xavfsizlik, resurslardan oqilona foydalanish hamda ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini o'zida mujassam etgan yashil texnologiyalarni joriy etish sanoat rivojlanishining yangi paradigmasini shakllantirmoqda. Mazkur jarayonlarni baholash va monitoring qilishda xalqaro miqyosda ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlari tizimi muhim